

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

"Tasdiqlayman"

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni Saqlash Vazirligining
Fan va o'quv yurtlari
Bosh boshqarmasi boshlig'i
_____ Sh.E. Ataxanov.
" ____ " _____ 2009 y.
Bayonnoma № ____ .

SHARQ TABOBATI ASOSLARI

(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)

Tuzuvchilar:

A.A. Abduvaliev – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası dotsenti, t.f.d., sharq tabobati kursi boshlig'i;

I.E. Jo'raev – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası assistenti;

S.M. Muhammadieva – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası assistenti;

N.B. Sodiqova – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası assistenti;

G.A. Abduvalieva – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası klinik ordinatori.

Taqrizchilar:

S.N. Bobojonov – davolash fakultetining "Fakultet va gospital terapiya, sharq tabobati, tibbiy-profilaktika fakultetining ichki kasalliklari" kafedrası professori, t.f.d.

Sh.M. Rahimov – t.f.d., professor, Toshkent Pediatriya Meditsina Institutining Gospital terapiya kafedrası mudiri.

O'quv-uslubiy qo'llanma TTA MUH Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan
(Bayonnoma № _____ " _____ " _____ 2009 y.).

MUH raisi, professor

M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy qo'llanma TTA Ilmiy Kengashida tasdiqlangan va chop etishga tavsiya
qilingan (Bayonnoma № _____ " _____ " _____ 2009 y.).

Ilmiy kotib, t.f.d., professor

G.S. Raximbaeva

K I R I S H

Sharqiy davolash usullarining asosiy xususiyati bemorning butun tanasi va shaxsiy resurslaridan foydalanish, bemorni davolash jarayoniga faol jalb etishdan iborat – bu esa bemorni emas, balki kasallikni davolash usulidir.

Barcha shifokorlarning katta muammosi bo'lib qolgan dori allergiyasi, doriga qaramlik dorilarni kam qabul qilishga va ularsiz davolash yo'lini axtarishga majbur etadi. Shuning uchun ham talabalarga sharqiy davolash usullarini o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi. Sharqiy davolash usullari dunyoda tan olingan va shifokorlar tomonidan keng qo'llanilib kelmoqda. Bu usullar iqtisodiy kamchiqimligi, qimmatbaho va murakkab jihozlar yordami qo'llanmasligi hamda salbiy ta'siri yo'qligi bilan afzal hisoblanadi.

Sharq tabobati kursi xodimlari tomonidan tayyorlangan mazkur qo'llanma maxsus adabiyotlar zarurati sharoitida sharq tabobati usullari bilan davolash asoslari bo'yicha bilimlarni to'ldiradi, talabalarga bu usullarni o'rganishda yordam beradi.

Bu uslubiy qo'llanma talabalar uchun igna bilan davolash usullaridan amaliy mashg'ulotlarning qabul qilingan rejasi tartibida tuzilgan bo'lib, zarur qismlardan tashkil topgan, amaliy masalalar bilan boyitilgan. Oldingi metodik qo'llanmalarga nisbatan ancha to'liq va lotin alifbosida yozilgan.

1-MASHG'ULOT.

Mavzu: Mutaxassislikka kirish. Qadimgi Sharq an'anaviy tibbiyotida falsafiy konsepsiyalarning ahamiyati. Akupunktur nuqta haqida tushuncha. Standart nuqtalar. Akupunktura ignalari, ularni muolajaga tayyorlash va igna qo'yish texnikasi.

Mashg'ulot maqsadi: IRT (ignarefleksoterapiya) usuli va texnikasi bilan tanishish. IRT asboblari o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:


1. Tana qismlarining topografik-anatomik xususiyatlari.
2. IRT haqida tushuncha.
3. Sterilizatsiya turlari.

Chjen-szyu-terapiya usulining nomi xitoy tilida quyidagini bildiradi: "chjen"-igna sanchish va "szyu"-kuydirish. Hozirgi vaqtda uning dunyoga tarqalgan ovro'polik nomi – akupunktura (lotin tilidan: acus-igna, punctio-sanchish). Chjen-szyu usulining asl ma'nosi shundan iboratki, u tananing ma'lum nuqtalariga davo maqsadida maxsus ignalar va tutatilgan shuvoq yordamida ta'sir etishdir.

Qadimgi Sharq amaliy tibbiyoti bo'yicha kasallik kelib chiqishida va kasallikni davolashda falsafiy konsepsiyalarning ahamiyati katta.

IN' VA YAN KONTSEPTSIYASI

Xitoy tibbiyoti dunyoqarashining asosida ikki qarama-qarshilik (in'-yan) haqidagi ta'limot yotadi (1-rasm). In' va yan bir-biri bilan kurashgan holda bir-birini chegarallaydi. In' ichki, yan tashqi qo'zg'alishni chaqiradi. Ular qarshi kurashib bir-birini siqib chiqaradi. Doimiy kurash va bir-birini siqib chiqarishga intilish - o'zgargan kuch harakati narsalarni rivojlanishidir. Qutb kuchlaridek ular bir-biriga bog'lik va ma'lum bir sharoitda biri-biriga o'tishi mumkin.



1-rasm. Xitoy monadasi.

Qadimgi olimlar In va Yan asosiy xususiyatlarini suv va olov bilan belgilar edi. Boshqacha qilib aytganda, o'z xususiyatiga ko'ra In' suvga o'xshash, yani sovuq, pastga yo'nalgan, xira va h.k. alomatlar bilan tavsiflanadi; Yanning asosiy xususiyatlari olov xususiyatlariga o'xshash-issiq, yuqoriga yo'nalgan, yorug' va h.k.


Me'yordagi sharoitlarda ushbu qarama-qarshiliklar orasida nisbiy muvozanat saqlanib tiradi, patologik sharoitlarda esa in' yoki yan kasallik sababi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, barcha davolovchi tadbirlarning bosh maqsadi in' va yanni nisbiy muvozanat xolatiga qaytarish bo'lishi lozim.

U-SIN KONSEPSIYASI

Qadimdan insonlar tabiat tsiklik ketma-ketligiga, bir-biri bilan chambarchas bog'liqligiga e'tibor berishgan: Tun va Kun, Tong va Shom, Qish va Yoz, Sovuq, va Issiq. Insonda nafas olmoq va nafas chiqarmoq, sistola va diastola va hakazo.

Tabiat muassasi asosida in' - passiv va yan-aktiv tsiklik ketma-ketligi yotadi deb hisoblanadi, har bir tsikl esa tugallash holidagi ketma-ketlik almanishidan iborat (bahor, tong) maksimal aktivlik (kun, yoz) kuchsizlik (kuz, shom), minimal aktivlik (qish, tun). Qadimgi Sharq olimlari (donolari) dunyoni 5 katta kategoriya turkumiga bo'lishdi - daraxt, olov, metall, suv, yer. Daraxt – o'sish belgisi, tug'ilish belgisi, olov - maksimal aktivlik (yan kuchining aktivligini maksimal ko'rinishi), metall - boshlanayotgan tushkunlik belgisi

("yan"dan "in"ga), suv - minimal aktivlik belgisi (in' passivlik kuchi), yer - butun dunyodagi o'zgarishlarning markazi va tsiklik o'qi. Teoriyaning yakuniy ko'rinishi o'zaro bog'liq bo'lgan yaratiluvchi (rivojchi) va destruktiv 5 element ko'rinishidadir. Bu elementlar - daraxt, olov, yer, metall, suv. 5 element teoriyasining 2 asosiy xususiyati - yaratilish va yemirilishga asoslangan va tirik organizm bilan tabiat qonunlarini bir - biriga bog'liqligini o'rnatish uchun xizmat qiladi (2-rasm)



ASBOBLAR

Ta'sirlovchi sifatida o'simlik va mineral moddalar, akupunktura ignalari, elektropunktura, issiqlik, sovuqlik, mexanik, fizik, dori-darmonlar va boshqalar qo'llanilishi mumkin. Qadim-qadimdan ta'sirlovchi sifatida akupunktura ignalari qo'llanilgan.

Ignalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: elastik, egiluvchan, zanglamaslik. Shuning uchun ignalar po'latdan, kumushdan, oltindan tayyorlanadi. Zanglamaydigan yuqori sifatli po'lat (nixrom)dan tayyorlangan ignalar, yuqori egiluvchanligi va kam oksidlanishi bilan ajralib turadi.

Kumush va oltin yumshoqligi tufayli ignalar ularning qotishmalaridan: kumushdan 80% kumushli, oltindan esa – 75% oltin, 13% kumush va 12% misli ignalar tayyorlangan. Bunday qotishma ignalar kiritilishi uchun zarur elastiklikka ega bo'lgan.

Ignalar quyidagi qismlardan tashkil topadi: dastasi, asosi, negizi va uchi. Igna dastasi sanchish, kiritish uchun, aylantirish va chiqarib olishga qulay bo'lishi zarur. Dasta spiralsimon o'ralgan va oxiri kichkina halqa bilan tugallangan (elektropunktura apparatining simini ulashga mo'ljallangan) bo'lib, qotishmadan tayyorlangan. Ba'zi ignalar dastasining

uchi ozroq chuqurcha bo'lib, u yerga cho'g'langan modda quyiladi ("qaynoq ignalar"). Dasta spiralsimon bo'lmasdan, balki dumaloq metall naycha ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Dasta negizdan sinib qolishi xavfi tufayli, dasta va negiz bir-biriga bog'lanmasdan, balki bir butun metall simdan tayyorlanadi. To'qimalarni shikastlantirmaslik va og'riq hissini chaqirmaslik uchun igna uchi o'tmas bo'lishi shart. Har xil chuqurlikdagi topografik nuqtalarga ta'sir etish sababli ignalar ma'lum chuqurlikka kiritiladi. Shuning uchun har xil uzunlikdagi ignalar bor. Bular 1,5 sm, 3 sm, 8 sm, 10 sm va 12–15 sm uzunlikda bo'ladi. Uzoq vaqt to'qimalarda ignalarni 24, 48, 72 soat va undan ko'p vaqt qoldirish uchun Chju-Lyan' taklif etgan alohida T-simon ignalar qo'llanib, teriga leykoplastir yordamida yopishtirilib qo'yiladi. Yana soch tolasiga o'xshash ichida kanali bor (diametri 0,45 mm) ignalar borki, shu kanallar orqali dori vositalari kiritilishi mumkin.

IGNALARNI STERILLASH

Ignalar distillangan suvda 30 daqiqa davomida qaynatilib, so'ngra spirt bilan artiladi va shisha probirkalarda saqlanadi. Sterilizatsiya qilishdan avval ignalar vodoprovod suvida yuviladi, so'ngra 15 daqiqa mobaynida vodorod perioksidi va yuvish eritmasidan tashkil topgan 50% li eritmada saqlanadi, keyin dokali tampon bilan artiladi. Ignalarni tozalashda tish poroshogi, tish pastasi yoki sodadan foydalaniladi. IRT o'tkazilishida albatta aseptika qoidalariga qat'iy rioya etilishi lozim. Igna kiritiladigan joy terisi dezinfeksiyalanadi, vrach muolajani o'tkazishdan oldin qo'lini va ishlatiladigan asbob va materiallarni (ignalar, pinsetlar, paxta tamponlari, doka salfetkalar) dezinfeksiya qilishi lozim.

IGNALARNI SANCHISH USULLARI

A – vertikal (teri yuzasiga nisbatan perpendikulyar, burchak 90°);

B – qiyshiq (45–50° o'tkir burchak ostida);

C – gorizontal (10–15° burchak ostida);

1. Sekin aylanma harakat bilan: a. Terini ushlamasdan; b. Terini ushlab.

2. Tez va yuzaki sanchish.

3. Avval sanchib, so'ngra aylanma harakat bilan kiritish.

Sanchish chuqurligi: nuqtaning o'rniga, bemor konstitutsiyasiga, jinsiga, yoshiga, teriosti yog' va mushaklari holatiga va boshqalarga bo'qliq. Oyoq va qo'l barmoqlarida, burun uchida, quloq atrofida va bosh sohasida chuqur sanchib kiritish mumkin emas. Igna kerakli chuqurlikka borganini bemor sezgisiga qarab aniqlanadi. Hayot uchun muhim bo'lgan a'zolar (o'pka, yurak, aorta, katta tomirlar) sohasiga joylashgan nuqtalarda IRT qo'llanilganda va avvalo shu a'zolarida patologik buzilishlar bo'lgan hollarda juda ham ehtiyotkorlik talab etiladi.

TA'SIR USULLARI

Qo'zg'atish xarakteri, kuchi va davomiyligiga qarab igna sanchishning asosiy ikki usuli bor: to'xtatuvchi va qo'zg'atuvchi. Ularning har biri ikki variantga – kuchli va kuchsizga bo'linadi. Bu ikki usul qo'zg'atish soni va kuchi, davomiyligi, igna sanchishning alohida usullari bilan bir-biridan farq qiladi.

To'xtatuvchi usul. Igna bu usulda kiritilganda sekin-asta kuchayuvchi, kuchli, asosan og'riqsiz va o'ziga xos sezgilar paydo bo'lishi (zirqirash, bosim, uyushish, isish, tok o'tishi) bilan ifodalanadi. Bu sezgilar mahalliy bo'lmasdan, balki igna kiritilgan joydan proksimal yoki distal tarafga ancha uzoqqa uzatiladi. To'xtatuvchi usulning 1-variantida igna sekin-asta, aylanma harakat bilan ancha chuqurlikka (1–10 sm) kiritilib, to'qimada ancha vaqtga (30–60 daqiqagacha), ba'zi hollarda bir necha soatga qoldiriladi. Kuchli og'riqlarda, sinamalarda va tirishishlarda igna 24–48 soatga qoldiriladi (bunda alohida T-simon ignalar

yoki mikroignalar qo'llaniladi. Igna sanchiladigan nuqtalar soni nisbatan oz (2–4). Bu usul asosan o'rta va balog'at yoshidagilarda qo'llaniladi. To'xtatuvchi usulning 2-variantida igna sekin aylanma harakat bilan kiritiladi. Ignaning kiritilish chuqurligi biroz kamroq bo'lib, sezgilar kuchi kamroq, ya'ni zirqiroq og'riq, yengil bosim, tortishib og'rish bo'lib, irradiatsiya bo'lmaydi. Ignalar to'qimada 15 daqiqadan 20 daqiqagacha qoldiriladi, ta'sir qilish nuqtalar soni 4–6 gacha, asosan keksalarda, bolalarda va astenizatsiyalangan bemorlarda qo'llaniladi. Ba'zi bemorlarda muolajadan oldin qo'rquv hissiyoti bo'ladi. Shuning uchun davolash boshida to'xtatuvchi usulning 2-varianti qo'llanadi. Davolash amaliyotida ba'zan to'xtatuvchi usulning oraliq variantlari qo'llanadi: 1–2-qo'zg'alish kuchi 1-variantga, davomiyligi 2-variantga teng bo'lganda; 2–1-qo'zg'alish kuchi 2-variantga, davomiyligi 1-variantga teng bo'lganda.

Xulosa qilib aytganda, to'xtatuvchi usulga xarakterli bo'lgan xususiyatlar bu ma'lum sezgilar va qo'zg'atish davomiyligidir.

Qo'zg'atuvchi usul. Bu usulda ta'sir yuzaki, kuchli, tez va qisqadir, ta'sir ko'p nuqtalarga navbatma-navbat beriladi va bu yengil og'riq hissi hamda elektr toki o'tishi sezgisi bilan kuzatiladi. Qo'zg'atuvchi usulning 1-variantida ta'sir asosan bitta igna yordamida teri va teriosti yog' qatlamiga yuzaki (0,3–0,6 sm), navbatma-navbat 10–15 soniyadan 1–2 daqiqagacha 8–10 ta nuqtalarga kiritiladi, igna to'qimada qoldirilmaydi. Qo'zg'atuvchi usulning 2-variantida ta'sir 2–3 igna yordamida navbatma-navbat 6–8 nuqtaga punktir harakatlar bilan qisqa vaqtga (3–5 daqiqa) to'qimalarda yuzaki qoldiriladi va qayta punktirlash yo'li bilan beriladi. Bu usulda lokal va keng bo'lmagan irradiatsiya sohasiga tarqaluvchi kuchsiz og'riq, uyushish, va elektr toki o'tishi hissi aniqlanadi.

Qo'zg'atuvchi usulning ikkala varianti kattalarda ham, bolalarda ham asosan harakat, sezgi va sekretor funksiyalar pasayganda yoki yo'qolganda qo'llaniladi, shuningdek hushdan ketish yoki kollapsda tez yordam sifatida qo'l keladi.

NUQTA VA MERIDIAN HAQIDA TUSHUNCHA.

Akupunktura nuqtasi – bu davolash maqsadida ta'sir etishning aniq sohasi. Nuqtalar alohida energetik tizimlar bo'lgan "kanallar" yoki meridianlar bo'ylab joylashgan. Bu kanallar o'zaro va ichki a'zolar bilan boglangandir.

Odam tanasida 14 ta doimiy meridianlar farqlanib, ularning 12 tasi juft, 2 tasi toq hisoblanadi. Juft meridianlar odam tanasidagi a'zolar nomlari bilan ataladi, toqlari – orqa o'rta va old o'rta meridianlardir.

MERIDIANLAR NOMLARI

Raqamli belgisi	Meridian nomi	
	O'zbekcha	Fransuzcha (qisqartirilgan)
I	O'pka	P
II	Yo'g'on ichak	GI
III	Oshqozon	E
IV	Taloq-oshqozonosti bezi	RP
V	Yurak	C
VI	Ingichka ichak	IG

VII	Siydik pufagi	V
VIII	Buyrak	R
IX	Perikard	MC
X	Tananing uch qismi	TR
XI	O't qopi	VB
XII	Jigar	F
XIII	Orqa o'rta	T* (VG)
XIV	Old o'rta	J* (VC)

* – nomi "Ajoyib meridian" bo'yicha berilgan, fransuzcha – VG; VC bilan belgilanadi.

STANDART NUQTALAR

Standart nuqtalar meridian patologiyasida qo'llaniladigan asosiy nuqtalardir. Hammasi bo'lib 7 ta standart nuqta farqlanadi. Shulardan 5 tasi doimo taalluqli meridianda, qo'l va oyoqlarning distal qismida (tirsakdan pastda, tizzadan pastda) joylashadi – qo'zg'atuvchi, tinchlantiruvchi, qo'llanma, mo'tadillovchi va og'riq qoldiruvchi nuqtalar. Signal nuqtalar tananing ventral (tananing oldi – ko'krak va qorin) qismida, hamdard nuqtalar esa tananing dorsal (umurtqa pog'onasi bo'ylab chetroq) qismida joylashadi. Quyida standart nuqtalar tavsifi keltiriladi.

1. Qo'zg'atuvchi (tonuslovchi, stimullovchi) nuqta meridianda "bo'shliq" sindromi bo'lganda va shu holatlar bilan bog'liq bo'lgan patologik holatlarda qo'llaniladi, ya'ni taalluqli bo'lgan organ gipofunksiyasida, giposekretsiyasida, paralichlarda, atrofiya, asteniyada va boshqalarda qo'llaniladi.

2. Tormozlovchi (sedativ, tinchlantiruvchi) nuqta meridianda "to'lalilik" sindromi bo'lganda va shu holat bilan bog'liq bo'lgan patologik holatlarda, ya'ni taalluqli bo'lgan organ giperfunksiyasida, gipersekretsiyasida, tortishishda, spazmlarda, gipertonusda, zo'riqishda, qo'zg'aluvchanlikda va boshqalarda qo'llaniladi.

3. Qo'llanma nuqta ta'sir qilish metodiga qarab bu nuqta meridianga tonuslovchi yoki tinchlantiruvchi effekt berishi mumkin. Bu nuqta orqali meridianga bir elementga taalluqli bo'lgan meridianning lo nuqtasidan energiya o'tadi.

4. Mo'tadillovchi (lo) nuqtalar bir elementga taalluqli bo'lgan ikkinchi meridianning qo'llanma nuqtasi yordamida energiya disbalansini regulyatsiya qilishga yordam beradi.

5. Signal (mo) nuqtalar tananing ventral qismida o'ziga taalluqli bo'lgan organga yaqin joylashadi. Bu nuqta organlar holatining diagnostikasida qo'llaniladi.

6. Hamdard nuqtalar siydik pufagi meridianining umurtqa pog'onasiga yaqin shoxchasiga joylashgan. Bu nuqtalar taalluqli bo'lgan organning o'tkir va surunkali kasalliklarida qo'llaniladi.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqtalar energiya sirkulyatsiyasi blokadasida juda samarali ta'sir qiladi. Bu nuqtalar o'tkir jarayonlarda va og'riq sindromida qo'llaniladi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. "CHI" – hayot manbai to'qrisida tushuncha.
2. Akupunktura nuqtasi nima?
3. Akupunktura nuqtalarini topish yo'llari va ularni belgilash.
4. Meridian to'g'risida tushuncha.

5. Akupunktura ignalari, ularni sterillash.
6. Meridianning standart nuqtasi nima?

Vaziyatga asoslangan masalalar:

Keltirilgan klinik vaziyatlardan refleksoterapiya qo'llash mumkin bo'lgan holatni tanlang:

- a) 60 yoshli bemor. Tekshirishlar asosida bemorga TBSning faol shakli deb tashxis qo'yilgan.
- b) Shifokorga 36 yoshli bemor "n. trigeminus nevralgiyasi" bilan murojaat etgan. Qo'shimcha kasalliklari yo'q.
- c) Homilador ayolda (6 haftalik homila) qusish belgilari bor.
- d) Bemor uch yil davomida vazomotor rinit bilan azoblanadi.
- e) Bemor 52 yoshda. Kasbi – avtobus haydovchi. Kasalligi – bo'yin, ko'krak va bel umurtqalari osteoxondrozi.

Uyga vazifa:

O'pka va yo'g'on ichak meridianlari topografiyasi. Ularni qo'llashga asoslar.

2-MASHG'ULOT.

Mavzu: O'pka va yo'g'on ichak meridianlari tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: O'pka va yo'g'on ichak meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topilishini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Akupunktura nuqtasi to'g'risida tushuncha.
2. Akupunktura nuqtalarini topish usullari.
3. Meridianlar xarakteristikasi (in, yan).
4. Igna bilan davolash usullari.
5. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan o'pkaning vazifasini o'rganish (chjan va fu).

I. O'PKALAR MERIDIANI (P)

O'pka meridiani tizimiga burun, burun-halqum, traxeya, bronxlar, o'pkalar va teri qoplamini kiradi. Meridian juft va simmetrik bo'lib, in tizimiga mansub. Energiya harakati – markazdan qochuvchi. Eng faol davri – soat 03 dan 05 gacha. Energiyani jigar meridianidan olib yo'g'on ichak meridianiga o'tkazadi. Meridianda 11 ta nuqta bor.


Meridianning ichki yo'li tananing o'rta qismidan boshlanib, pastga yo'naladi va yo'g'on ichak bilan boo'lanadi. So'ngra yo'l yuqoriga ko'tariladi, oshqozonning kardial qismi va diafragma orqali o'pkaga kiradi, keyin hiqildoqqa o'tadi, so'ngra yelka bo'g'imi sohasiga tushadi va 2-qovurg'aning yuqori qirrasida tashqariga chiqadi.

Tashqi yo'li 1-qovurg'aoralig'ida, ko'krak o'rta chizig'idan 6 sun (s) chetdan chiqadi, yelka bo'g'imiga ko'tarilib, yelka ichki yuzasi va bilakning bilak suyagi tomoni orqali pastga tushadi, bosh barmoq bo'rtig'idan kaft ichi va usti chegarasi bo'ylab o'tadi, bosh barmoq tirnog'iga bilak suyagi tomonida 3 mm yetmay tugaydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: yo'tal, harsillash, nafas siqishi, o'pka va yuqori nafas yo'li kasalliklarining boshqa belgilari, yurak-qon tomirlari tizimining dimlanishi, o'mrovning ustki chuqurchasidagi va yelka bo'g'imi sohasidagi og'riqlar, ko'p terlash, isitmalash, teri kasalliklari.

Standart nuqtalar:

1. Tonus oshiruvchi nuqta – P-9 (tay-yuan) – proksimal bilak-kaft burmasining bilak suyagi tarafida, bilak arteriyasi pulsatsiyasi va chuqurcha paypaslanadigan nuqta. Sanchish chuqurligi – 0,5 sm, szyu – 3 daqiqa.
2. Tinchlantiruvchi nuqta – P-5 (chi-sze) – tirsak bukilishida hosil bo'ladigan burma markazi, yelkaning ikki boshli mushagi payidan bilak suyagi tarafdagi nuqta. Sanchish chuqurligi – 1 sm, szyu ishlatilmaydi.
3. Qo'llanma nuqta – P-9 (tay-yuan).
4. Hamdard nuqta – V-13 (fey-shu) – 3- va 4-ko'krak umurtqalari orasida va orqa o'rta chiziqdan 1,5 s. chetdagi nuqta. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–20 daqiqa.
5. Signal nuqta – P-1 (chjun-fu) – 2-qovurg'aning yuqori qirrasida, o'rta chiziqdan 6 s. chetda joylashgan nuqta. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 10–20 daqiqa.
6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – P-7 (le-syue) – bilakning bilak suyagi tarafida, bigizsimon o'simtadan bir oz yuqorida, chuqurcha paypaslanadigan nuqta, bilak-kaft burmasidan 1,5 s. yuqorida joylashgan. Sanchish igna orqasi tirsak bo'g'imi tarafga yo'nalgan burchak ostida, chuqurligi 0,5 sm, szyu 5–10 daqiqa.
7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – P-6 (kun-szuy) – bilak-kaft burmasidan 7 s. yuqorida bilakning kaft yuzasidagi nuqta. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.



1-rasm. I O'pkalar meridiani (P) va uning nuqtalari:

- 1 – chjun-fu; 2 – yun-men;
3 – tyan-fu; 4 – sya-bay;
5 – chi-sze; 6 – kun-szuy;
7 – le-syue; 8 – szin-syuy;
9 – tay-yuan; 10 – yuy-szi;
11 – shao-shan.

II. YO'G'ON ICHAK MERIDIANI (GI)

Meridian tizimiga asosiy funksiyasi shlaklarni chiqarib tashlovchi, organizm suyuqliklari sirkulyatsiyasida qatnashuvchi a'zo – y o'g'on ichak kiradi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, yan tizimiga mansub. Energiya harakati – markazga intiluvchi. Eng faol davri – soat 05 dan

07 gacha. Energiyani o'pka meridianidan olib, oshqozonga o'tkazadi. Meridianda 20 ta nuqta bor.

Bu meridian ko'rsatkich barmoqning oxirgi falangasida tirnoq plastinkasiga bilak suyagi tomonidan 3 mm yetmasdan joylashgan nuqta (GI-1 – shan-yan)dan boshlanadi, ko'rsatkich barmoqning bilak suyagi tomoni bo'ylab I va II kaft suyaklari oralig'iga va keyin bilakning radial tomonidan tirsak ichki burmasining tashqi chetiga, yelkaning tashqi-orqa yuzasi bo'ylab akramionga o'tadi, keyin trapetsiyasimon mushakning old-tashqi qirrasi bo'ylab o'mrovusti chuqurchasiga va u yerdan bo'yinning yon yuzasi, pastki jag'ni burchagidan old tomonga kesib o'tib, lunjga pastki jag' milki markazigacha o'tadi, keyin og'izni burun oldidan kesib o'tib, qarama-qarshi tomondagi lab-burun burmasining yuqori qismi (GI-20 – in-syan nuqtasi)da tugaydi.


Qo'llashga ko'rsatmalar: og'iz qurishi, stomatit, tish og'rig'i, ko'z va tomoqdagi og'riqlar, yuz va bo'yindagi infiltratlar, qorin og'rig'i, ich ketishi, qo'l bo'g'imlari og'riqlari, sklera sariqligi, tumov.

Standart nuqtalar:

1. Tonus oshiruvchi nuqta – GI-11 (syuy-chi) – lateral bo'rtma bilan tirsak burmasining bilak suyagi tomonidagi chekkasi o'rtasidagi nuqta. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5-15 daqiqa.

2. Tinchlantiruvchi nuqta – GI-2 (er-szyan) – qo'l 2-barmog'i proksimal falangasining kaft tomondagi boshchasi tanasiga o'tishi joyidan kaft ichining sirtga o'tish chegarasida joylashgan chuqurchadagi nuqta. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

3. Qo'llanma nuqta – GI-4 (xe-gu) – I va II kaft suyaklari oralig'ida, II kaft suyagining radial chekkasiga yaqin nuqta, birinchi barmoqni boshqa barmoqlar tomoniga bosilganda kaft sirtida hosil bo'ladigan bo'rtmaning eng yuqori qismida joylashadi. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–15 daqiqa.



2-rasm. II Yo'g'on ichak meridiani (GI) va uning nuqtalari:

- 1 – shan-yan; 2 – er-szyan;
- 3 – san-szyan; 4 – xe-gu;
- 5 – yan-si; 6 – pyan-li;
- 7 – ven-lyu; 8 – sya-lyan;
- 9 – shan-lyan; 10 – shou-san-li;
- 11 – syuy-chi; 12 – chjou-lyao;
- 13 – shou-u-li; 14 – bi-nao;
- 15 – szyan-yuy; 16 – szyuy-gu;
- 17 – tyan-din; 18 – fu-tu;
- 19 – xe-lyao; 20 – in-syan.

4. Hamdard nuqta – V-25 (da-chan-shu) – 4- va 5-bel umurtqalari oralig'ida, orqa o'rta chiziqdan 1,5 s. tashqarida joylashgan. Sanchish chuqurligi 2–3 sm, szyu – 10–30 daqiqa.

5. Signal nuqta – E-25 (tyan-shu) – kindikdan 2 s. tashqarida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 10–30 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – GI-6 (pyan-li) – bilak-kaftorti bo'g'imidan 3 s. yuqorida bilakning orqa yuzasida bilak suyagi tomoniga yaqin joylashgan. Bu nuqta GI-5 (yan-si) nuqtasidan 3 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 10–15 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – GI-7 (ven-lyu) – tirsak bo'g'imi bilan bilak-kaftorti bo'g'imi o'rtasida bilakning orqa yuzasida bilak suyagi tomonida mushaklar oralig'ida, GI-5 (yan-si) nuqtasidan 6 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 10–15 daqiqa.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. O'pka va yo'g'on ichak meridianlarining topografiyasi. Uni qo'llashga asoslar.
2. O'pka meridianining asosiy yo'li.
3. O'pka meridianining nuqtalarini qo'llashga asoslar.
4. Yo'g'on ichak meridianining asosiy yo'li.
5. Yo'g'on ichak meridianining nuqtalarini qo'llashga asoslar.

Vaziyatga asoslangan masalalar:

1. Spastik va atonik qabziyatda qanday ta'sir qilish usulini qo'llash zarur?
2. Bemorda bronxial astmaning o'tkir huruji. qanday sindromga (yan, in) qarashli deb o'ylaysiz? Nuqtalarning sodda retseptini tuzing.

Uyga vazifa:

Oshqozon, taloq-oshqozonosti bezi meridianlari topografiyasi. Ularni qo'llashga asoslar.

3-MASHG'ULOT.

Mavzu: Oshqozon va taloq-oshqozonosti bezi meridianlari tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: Oshqozon va taloq-oshqozonosti bezi meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topilishini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. O'pka meridianining topografiyasi.
2. O'pka meridiani patologik holatining asosiy belgilari.
3. Yo'g'on ichak meridianining topografiyasi.
4. Yo'g'on ichak meridiani patologik holatining asosiy belgilari.
5. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan oshqozon, taloq va oshqozonosti bezi vazifalarini o'rganish.


III. OSHQOZON MERIDIANI (E)

Oshqozon meridiani tizimiga a'zo sifatida oshqozon kiradi. Oshqozon ovqat hazm qilishda ishtirok etadi va organizmni oziq moddalar bilan ta'minlovchi a'zodir. Oshqozon meridiani juft va simmetrik bo'lib, yan tizimiga kiradi. Energiya markazdan qochuvchi bo'lib xarakatlanadi. Eng faol davri – soat 07 dan 09 gacha. Energiyani yo'g'on ichak meridianidan olib taloq-oshqozonosti bezi meridianiga uzatadi. 45 ta ta'sir etish nuqtalari mavjud.

Bu meridian ko'z kosasi pastki qirrasi o'rtasidan Ye-1 (chen-si) nuqtasida boshlanib, so'ngra qorachiq liniyasi bo'ylab pastga og'iz burchagigacha tushadi, keyin pastki jag'

burchagiga o'tib Ye-5 (da-in) nuqtasida ikkiga bo'linadi. Bir shoxi yuqoriga ko'tarilib, quloq suprasining oldidan o'tadi va chakka chuqurchasida, boshning soch qismi peshona burchagidagi Ye-8 (tou-vey) nuqtasida tugaydi; boshqa shoxi lunjlarning oldingi qismidan pastga yo'nalib, hikildoq oldidan o'tib, o'mrov suyagining yuqori qirrasiga yetadi, o'mrov o'rta chizig'idan, qorin oldi devori ikki yonlama chiziqidan, qov suyagidan, sonning oldingi yuzasidan, tizzadan katta boldir mushaklari bilan barmoqlarni yozuvchi uzun mushak orasidan, ya'ni boldirning oldingi yuzasidan o'tib, oyoq panjasi ustida 2- va 3-panja suyaklari orasidan o'tib, 2-barmoq tirnogq plastinkasiga 0,3 sm yetmasdan Ye-45 (li-duy) nuqtasida tugaydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: qorin sohasidagi og'riqlar, kekirish, qorin damlashi, qabziyat, ich ketishi, gastrit, oshqozon va 12 barmoq ichak yarasi, bosh og'rig'i, tish og'rig'i, yuz nervi yallig'lanishi, uchlik nerv nevralgias, oyoq og'rig'i, tizza bo'g'imdagi og'riq, ruhiyatning buzilishi, nevrasteniya, ayollar tanosil kasalliklari, ko'z kasalliklari, gipertenziya.



3-rasm. III Oshqozon meridiani (E) va uning nuqtalari:

- 1 – chen-si; 2 – si-bay;
- 3 – s yuy-lyao; 4 – di-san;
- 5 – da-in; 6 – szya-che;
- 7 – sya-guan; 8 – tou-vey;
- 9 – jen-in; 10 – shun-tu;
- 11 – si-she; 12 – syue-pen;
- 13 – si-xu; 14 – ku-fan;
- 15 – u-i; 16 – in-guan;
- 17 – ju-chjun; 18 – ju-chen;
- 19 – bu-ysi; 20 – chen-man;
- 21 – lyan-men; 22 – guan-men;
- 23 – tay-i; 24 – xua-jou-men;
- 25 – tyan-shu; 26 – vay-lin;
- 27 – da-szyuy; 28 – shuy-dao;
- 29 – guy-lay; 30 – si-chun;
- 31 – bi-guan; 32 – fu-tu;
- 33 – in-shi; 34 – lyan-syu;
- 35 – du-bi; 36 – szu-san-li;
- 37 – shan-szyuy-syuy;
- 38 – tyao-kou;
- 39 – sya-szyuy-syuy;
- 40 – fen-lun; 41 – sze-si;
- 42 – chun-yan; 43 – syan-chu;
- 44 – ney-tin; 45 – li-duy.

Standart nuqtalar:

1. Tonus oshiruvchi nuqta – E-41 (sze-si) – oyoq panjasi ustki burmasida, krestitsimon boylam ustidagi paylar chuqurligida, ya'ni Ye-42 (chun-yan) nuqtadan 1,5 s. orqaroqda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–10 daqiqa.
2. Tinchlantiruvchi nuqta – E-45 (li-duy) – oyoq 2-barmog'i tirnog'iga lateral tomondan 0,3 sm yetmasdan joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,3 sm, szyu – 3–5 daqiqa.
3. Qo'llanma nuqta – E-42 (chun-yan) - oyoq panjasi ustki qismining eng ko'tarilgan, arteriya pulsatsiyasi aniqlanadigan joyda, barmoqlararo oraliqqa 5 s. yetmasdan joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu 3 daqiqa.
4. Hamdard nuqta – V-21 (vey-shu). 12-ko'krak va 1-bel umurtqalarining qirrasimon o'siqlari orasidan 1,5 s. chekkada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 15–20 daqiqa.
5. Signal nuqta – J-12 (chjun-van) – qorinda o'rta chiziq bo'ylab kindikdan 4 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 2–2,5 sm, szyu – 10–20 daqiqa.
6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – E-40 (fen-lun) – oyoqning lateral to'pig'i markazidan 8 s. yuqorida, boldir old mushagi qorinchasining tashqi qirrasida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–20 daqiqa.
7. Og'riq qoldiruvchi – E-34 (lyan-syu) – tizza qopqog'i ustki tomonidan 3 s. yuqorida, sonning to'g'ri va tashqi serbar mushaklari orasida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–7 daqiqa.

IV. TALOQ-OSHOZONOSTI BEZI MERIDIANI (RP)


Bu meridian funksional tizimiga oziq moddalar va qonni organizmda jamlash hamda taqsimlash, trofik jarayonlar, mushak tizimi kiradi. Taloq-oshozonosti bezi meridiani ovqat hazm qilish tizimini nazarda tutadi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, in tizimiga kiradi. Energiya markazga intiluvchan harakatlanadi. Energiyani oshqozon meridianidan olib yurak meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 9 dan 11 gacha. 21 nuqta bor.

Taloq-oshozonosti bezi meridiani oyoq panjasining birinchi barmog'i ichki qismidan tirnoq burchagiga 0,3 sm yetmasdan RP-1 (in-bay) nuqtasidan boshlanib, oyoq panjasining ichki-yon qismidan, boldir va sonning old-ichki va qorinning yon tomonlaridan yuqoriga ko'tariladi, so'ngra ko'krakda o'rtao'mrov chizig'i bo'ylab chiqib, o'rta chiziqdan 6 s. chekkada 3-qovurg'aning ustki qirrasidan past va tashqari tomonga yo'naladi hamda 7-qovurg'aning ustki qirrasida o'rta oq'ltiqosti chiziqida RP-21 (da-bao) nuqtasida yakunlanadi. Ichki yo'li ikkiga shoxlanadi: oshqozondan boshlanib, bir shoxi yuqoriga diafragma orqali o'pka va traxeyaga, keyin tomoq, hiqildoq va tilga o'tadi, boshqasi yurakka ko'tarilib yurak meridiani bilan bog'lanadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: Epigastral va qovurg'aosti sohalaridagi og'riqlar, qayt qilish, ich ketishi, qabziyat, ishtaha yo'qligi, sariqlik, uyqusizlik, oyoqlar shishi, oyoq ichki tomoni va bo'g'imlaridagi og'riqlar, oyoq 1-barmog'i harakatining cheklanishi.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – RP-2 (da-du) – oyoqning 1-panja-barmog bo'g'imi oldida, tovonusti sohasining tovonosti sohasiga o'tish joyidagi paypaslab aniqlanadigan chuqurcha. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5 daqiqa.
2. Tinchlantiruvchi nuqta – RP-5 (shan-syu) – medial to'piq osti va oldirog'idagi chuqurchada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki orqa bilan yotgan va boldir-tovon bo'g'imi bukilgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.
3. Qo'llanma nuqta – RP-3 (tay-bay) – tovonning medial tomonida, 1-panja suyagi boshchasidan past va orqa sohadagi chuqurchada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.



4-rasm. IV Taloq-
oshqozonosti bezi
meridiani (RP) va uning
nuqtalari:

- 1 – in-bay; 2 – da-du;
- 3 – tay-bay; 4 – gun-sun;
- 5 – shan-syu;
- 6 – san-in-szyao;
- 7 – lou-gu; 8 – di-szi;
- 9 – in-lin-syuan;
- 10 – syue-xay;
- 11 – szi-men;
- 12 – chun-men;
- 13 – fu-she; 14 – fu-sze;
- 15 – da-xen; 16 – fu-ay;
- 17 – shi-dou;
- 18 – tyan-si;
- 19 – syun-syan;
- 20 – chjou-jun;
- 21 – da-bao.

4. Hamdard nuqta V-20 (pi-shu) – 11- va 12-ko'krak umurtqalari orasi sathida orqa o'rta chiziqdan 1,5 s. chekkada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki qorin bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 15–20 daqiqa.

5. Signal nuqta – F-13 (chjan-men) – 11-qovurg'aning erkin uchi oldida joylashgan. Bu nuqta bemorni yon bilan yotqizilib, patki tomondagi oyoq to'g'rilangan va yuqori tomondagi oyoq bukilgan holatga keltirilib topiladi. Sanchish chuqurligi 2 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – RP-4 (gun-sun) – tovon medial tomonida 1-panja suyagi asosining old-past chekkasi chuqurchasida, 1-panja-barmoq bo'g'imidan 1 s. orqada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – RP-8 (di-szi) – boldir katta suyagining orqa qirrasida, tizza qopqog'ining pastki chekkasidan 5 s. pastda joylashgan. Bu nuqtani bemorning oyog'i to'g'rilab topiladi. Sanchish chuqurligi 2 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Oshqozon meridianining topografiyasi.
2. Oshqozon meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.
3. Oshqozon meridianining standart nuqtalari.
4. Taloq-oshqozonosti bezi meridianining topografiyasi.
5. Taloq-oshqozonosti bezi meridianining standart nuqtalari.
6. Taloq-oshqozonosti bezi meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.

Vaziyatga asoslangan masalalar:

1. IRT muolajasi vaqtida igna aylanmay qoldi, chiqmayapti. Siz nima qilgan bo'lardingiz?
2. Oshqozon meridiani qaysi nuqtalarga ta'sir etib oshqozonning spastik og'riqlarini qoldirishi mumkin? Ta'sirning qaysi usulini qo'llaysiz (to'xtatuvchi va qo'zg'atuvchi)?
3. Oshiq-boldir bo'g'imida o'tkir og'riq bo'lgan paytda qaysi akupunktura nuqtalarini qo'llaysiz?
4. Isteriyani davolash uchun akupunktra nuqtalarini ayting.

Uyga vazifa:

Yurak va ingichka ichak meridianlarining topografiyalari, ularni qo'llashga asoslar.

4-MASHG'ULOT.

Mavzu: Yurak va ingichka ichak meridianlari tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: yurak va ingichka ichak meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topilishini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Oshqozon va oshqozonosti bezi-taloq meridianlarining topografiyalari.
2. Oshqozon va oshqozonosti bezi-taloq meridianlarini qo'llashga ko'rsatmalar.
3. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan yurak va ingichka ichak vazifalarini o'rganish.

V. YURAK MERIDIANI (C)

Meridian funksional tizimiga xususan yurak, qon tomirlar, ruhiy faoliyat, oliy po'stloq funksiyalari kiradi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, in tizimiga mansub. Energiya harakati – markazdan qochuvchi. Energiyani RP meridianidan olib ingichka ichak meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 11 dan 13 gacha. Meridianda 9 nuqta bor.

Meridianning ichki yo'li ikkiga shoxlanadi. Shulardan biri yurak-tomirlar tutami o'rtasidan boshlanib, so'ngra, pastga yo'nalib, diafragmadan o'tib ingichka ichak bilan bog'lanadi. Boshqa shoxi yurak-tomirlar tutamidan yuqoriga ko'tarilib traxeya yon yuzasidan tomoq, hiqildoq orqali o'tib ko'z tutami bilan bog'lanadi. Meridian ichki yo'lining asosiy qismi yurak-tomir tutami o'rtasidan boshlanib, o'pkalardan o'tib qo'ltiqosti sohasidan tashqariga chiqadi, ta'sir etish uchun shu joydan boshlab imkon tug'iladi.


Meridianning tashqi yo'li 3-qovurg'alararo oraliqda oldingi aksilyar chiziqda oldingi qo'ltiqosti burmasida C-1 (szi-syuan) nuqtasidan boshlanib, yuqoriga kichikroq yoy hosil qilib buriladi. So'ngra yelkaning ikki boshli mushagi ichki qirrasidan, tirsak bo'g'imi burmasini kesib o'tib, bilakning tirsak qirrasidan davom etib, no'xatsimon suyakni radial

tomondan aylanib o'tib, 4- va 5-kaft suyaklari orasidan o'tib jimjiloq barmoqning oxirgi falangasida bilak suyagi tomonidan tirnoqqa 0,3 sm yetmasdan C-9 (shao-chun) nuqtasida tugaydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: Yurak sohasidagi og'riqlar, aritmiyalar, bosh og'rig'i, miya qon aylanishi yetishmovchiligidagi bosh aylanishi, ko'krak og'riqlari, qovurg'alararo nevralgiya, jigar va o't pufagi kasalliklari belgilarida, qo'lning old-ichki yuzasi og'riqlari, qo'rquv, ichki bexalovatlik, xotira pasayishi, isteriya, epilepsiya, psixozlar, ishtaha susayishi, jigar, qalqonsimon bez faoliyatlarining susayishi.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – C-9 (shao-chun) – qo'l 5-barmog'ining oxirgi falangasida bilak suyagi tomonidan tirnoqqa 0,3 sm yetmasdan joylashgan nuqta. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,3 sm, szyu – 3–5 daqiqa.



5-rasm. V Yurak meridiani (C) va uning nuqtalari:

1 – szi-syuan; 2 – sin-lin; 3 – shao-xay; 4 – lin-dao; 5 – tun-li; 6 – in-si; 7 – shen-men; 8 – shao-fu; 9 – shao-chun.

2. Tinchlantiruvchi nuqta C-7 (shen-men) – bilak-kaftorti bo'g'imi proksimal burmasining panjani bukuvchi tirsak mushagi payining radial qirrasini kesishgan joy. Bu nuqta qo'l panjasini biroz yuqori tomonga bukib aniqlanadi. Sanchish chuqurligi 0,5–1,0 sm, igna panjani bukuvchi tirsak mushagi payi ostiga qiya holda sanchiladi, szyu – 10–20 daqiqa.

3. Qo'llanma nuqta – C-7 (shen-men) – (tinchlantiruvchi nuqtaga q.).

4. Hamdard nuqta – V-15 (sin-shu) – 5- va 6-ko'krak umurtqalarining qirrasimon o'siqlari orasi sathida orqa o'rta chiziqdan 1,5 s. chekkada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki qorin bilan pastga qarab yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

5. Signal nuqta – J-14 (szyuy-syue) – old o'rta chiziqda to'shning hanjarsimon o'simtasidan 1,5 s. pastda (yoki kindikdan 6 s. yuqorida) joylashgan. Bu nuqta bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1–1,5 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – C-5 (tun-li) – proksimal bilak-kaftorti burmasidan 1 s. yuqorida paylar orasidagi chuqurchada joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – C-6 (in-si) – bilak-kaftorti burmasidan 0,5 s. yuqorida paylar orasidagi chuqurchada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.

VI. INGICHKA ICHAK MERIDIANI (IG)

Meridian juft, simmetrik bo'lib, yan tizimiga kiradi. Energiya harakati – markazga intiluvchi. Eng faol davri – soat 13 dan 15 gacha. Meridianda 19 ta'sir etish nuqtasi bor.

Meridian tashqi yo'li qo'l 5-barmog'ining tirnog'iga tirsak suyagi tomonidan 0,3 sm yetmasdan – IG-1 (shao-sze) nuqtadan boshlanib, keyin tirsak suyagi tomoni bo'ylab kaftning qirrasini, bilak va yelkadan kurakning orqa o'sig'iga boradi, bu joyda o'tkir burchak shaklida (cho'qqisi bo'shliq chuqurchasiga qaragan) yo'l hosil qilib, bo'yinning yon qismiga o'tadi, keyin lunjga ko'tarilib, quloq oldi burmasi bilan pastki jag' bo'g'imi o'smasi orasidagi chuqurchada IG-19 (tin-gun) nuqtasida yakunlanadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: Ichak harakatining buzilishlari, dispeptik hodisalar, kindik va qorinning pastki qismidagi og'riqlar, meridian bo'ylab og'riq, ensa va boshdagi og'riqlar, bo'yin va yuz sohasidagi shishlar va og'riqlar, eshituv pasayishi, asabiy-ruhiy buzilishlar, revmatik xoreya.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – IG-3 (xou-si) – 5-kaft-barmoq bo'g'imining tirsak tomonidan orqaroqdagi chuqurchada panjani mushtum qilgan holda aniqlanadi. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

2. Tinchlantiruvchi nuqta IG-8 (syao-xay) – tirsakning tashqi yuzasida yelka suyagi medial do'mboqchasi bilan bilak suyagi o'sig'i orasidagi tirsak egatchasida joylashgan. Bu nuqta tirsak to'liq bukilgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.


3. Qo'llanma nuqta – IG-4 (van-gu) – 5-kaft suyagi asosi bilan uch qirrali suyak orasidagi chuqurchada, panjani tirsak suyagi tomonida joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5–15 daqiqa.

4. Hamdard nuqta – V-27 (syao-chan-shu) – 1- va 2-dumg'aza umurtqalari oralig'i sathida, orqa o'rta chiziqdan 1,5 s. chetda. Sanchish nuqtasi 2,5–3 sm, szyu – 25–30 daqiqa.

5. Signal nuqta – J-4 (guan-yuan) – qorin o'rta chiziqida kindikdan 3 s. pastda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5–2 sm, szyu – 10–15 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – IG-7 (chji-chjen) – bilakning orqa yuzasida bilak-kaftorti bo'g'imidan 5 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – IG-6 (yan-lao) – IG-5 (yan-gu) nuqtasidan 1 s. yuqorida, tirsak suyagi boshchasi ustida, panjani yozuvchi tirsak mushagi payining ulnar qirrasida joylashgan. Bu nuqta kaftni pastga qaratib, tirsak to'liq bukilgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 5 daqiqa.



6-rasm. VI Ingichka ichak meridiani (IG) va uning nuqtalari:

1 – shao-sze; 2 – syan-gu; 3 – xou-si; 4 – van-gu; 5 – yan-gu; 6 – yan-lao; 7 – chji-chjen; 8 – syao-xay; 9 – szyan-chjen; 10 – nao-shu; 11 – tyan-szun; 12 – bin-fen; 13 – yuy-yuan; 14 – szyan-vay-shu; 15 – szyan-chjun-shu; 16 – tyan-chuan; 17 – tyan-jun; 18 – syuan-lyao; 19 – tin-gun.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Yurak meridianining topografiyasi.
2. Yurak meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.
3. Yurak meridianining standart nuqtalari.
4. Ingichka ichak meridianining topografiyasi.
5. Ingichka ichak meridianining standart nuqtalari.
6. Ingichka ichak meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.

Vaziyatga asoslangan masalalar:

1. Bemorda IRT muolajasi natijasida bezovtalanish, terlash, ko'ngil aynashi paydo bo'lsa, siz nima qilasiz?
2. Paroksizmal taxikardiya hurujini qaysi nuqtaga ta'sir qilib to'xtatasiz?
3. Ateroskleroz sababli gipertenzion sindrom. Ishlatiladigan nuqtalarni toping.

Uyga vazifa:

Siydik pufagi va buyrak meridianlarining topografiyalari, ularni qo'llashga asoslar.

5-MASHG'ULOT.

Mavzu: Siydik pufagi va buyrak meridianlari tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: Siydik pufagi va buyrak meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topilishini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Yurak va ingichka ichak meridianlarining topografiyalari.
2. Yurak va ingichka ichak meridianlarini qo'llashga ko'rsatmalar.
3. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan siydik pufagi va buyrak vazifalarini o'rganish.


VII. SIYDIK PUFAGI MERIDIANI (V)

Meridian funksional tizimiga siydik chiqarish yo'llari va suyuqlik muvozanatini boshqaruv funksiyasi kiradi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, yan tizimiga mansub. Energiya harakati – markazdan qochuvchi. Energiyani ingichka ichak meridianidan olib buyrak meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 15 dan 17 gacha. Meridianda 67 ta ta'sir nuqta bor.

Meridianning tashqi chiqish yo'li ko'zning ichki burchagidan 0,3 sm tashqaridagi nuqta (V-1 – sin-min)dan boshlanib, peshona va kalla suyagidan o'tib, ensaga tushadi. U yerda 2 shoxga bo'linadi: umurtqa pog'onasi bo'ylab bu ikki shox parallel tushib borib taqim osti sohasida yana birlashadi. Ichki shox o'rta chiziqdan 1,5 s. uzoqlikdan o'tib, dumbaga yo'nalib, sonning orqa yuzasidan taqim ostiga o'tadi. So'ngra meridian boldirning orqa yuzasi o'rtasidan lateral tomonga burilib, tashqi to'piqqa tushadi. Shundan keyin oyoq panjasining tashqi qirrasidan o'tib, oyoq 5-barmog'i tashqi tomonida tirnoqqa 0,3 sm yetmasdan V-67 (chji-in) nuqtasida yakunlanadi. Meridian VG-20 (bay-xuey) nuqtasida qarama-qarshi meridian bilan uchrashadi. Meridian tashqi yo'li ikki shoxga bo'linadi. Birinchisi VG-20 (bay-xuey) nuqtasidan boshlanib, quloq suprasining yuqori chetiga borib, uch isitgich meridiani bilan uchrashadi. Ikkinchi shoxi bel sohasidan boshlanib, o'rta chiziqdan 0,5 s. tashqarida o'tib, dumba sohasi bo'ylab taqim ostiga tushadi. Ichki yo'li V-23 (shen-shu) nuqtasidan boshlanib, qorin bo'shlig'iga kirib, buyrak bilan bog'lanadi va siydik pufagiga boradi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: anuriya, oligouriya, pollakiuriya, sistit, pielonefrit, sistalgiya, siydik tuta olmaslik, siydik tutilishi, nefrit, bel sohasidagi og'riqlar, tashqi jinsiy a'zolardagi

og'riqlar, ayollar kasalliklari, bivosil, yurak kasalliklari, o'pka va ovqat hazm qilish trakti kasalliklari, burun va ko'z kasalliklari, boshning tepa va chakka soh'asidagi og'riqlar, umurtqadagi og'riqlar, tos-son bo'g'imi, sondagi, boldirdagi, tovondagi va oyoq 5-barmog'idagi og'riqlar, lyumbago, ishias.



7-rasm. VII Siydik pufagi meridiani (V) va uning nuqtalari:

1 – sin-min; 2 – suan-chju; 3 – mey-chun; 4 – syuy-cha; 5 – u-chu; 6 – chen-guan;
 7 – tun-tyan; 8 – lo-syue; 9 – yuy-chjen; 10 – tyan-chju; 11 – da-chju; 12 – fen-men; 13 – fey-shu; 14 – szyue-in-shu; 15 – sin-shu; 16 – du-shu; 17 – ge-shu; 18 – gan-shu; 19 – dan-shu; 20 – pi-shu; 21 – vey-shu; 22 – san-szyao-shu; 23 – shen-shu; 24 – si-xay-shu; 25 – da-chan-shu; 26 – guan-yuan-shu; 27 – syao-chan-shu; 28 – nan-guan-shu; 29 – chjun-moy-shu; 30 – bay-xuan-shu; 31 – shan-lyao; 32 – si-lyao; 34 – sya-lyao; 35 – xuey-yan; 36 – chen-fu; 37 – in-men; 38 – fu-si; 39 – vey-yan; 40 – vey-chjun; 41 – fu-fen; 42 – po-xu; 43 – gao-xuan; 44 – shen-tan; 45 – i-si; 46 – ge-xuan; 47 – xun-men; 48 – yan-gan; 49 – i-she; 50 – vey-san; 51 – xuan-men; 52 – chji-shi; 53 – bao-xuan; 54 – chji-byan; 55 – xe-yan; 56 – chen-szin; 57 – chen-shan; 58 – fey-yan; 59 – fu-yan; 60 – kun-lun; 61 – pu-shan; 62 – shen-may; 63 – szin-men; 64 – szin-gu; 65 – shu-gu; 66 – szu-tun-gu; 67 – chji-in.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – V-67 (ji-in) – oyoq 5-barmoqining tirnog'iga 0,3 sm yetmasdan tashqi burchagi tomonida joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,3 sm, szyu – 3–5 daqiqa.
2. Tinchlantiruvchi nuqta – V-65 (shu-gu) – oyoq panjasi 5-kaft suyagi boshchasidan tashqarida va orqaroqda, tovonosti va ustki sohalari chegarasidagi chuqurchada joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.
3. Qo'llanma nuqta – V-64 (szin-gu) – oyoq panjasi 5-kaft suyagi bo'rtig'idan orqa va past tomondagi chuqurchada, tovonustining ostki tomonga o'tish joyida. Sanchish chuqurligi 0,3 sm, szyu – 3–5 daqiqa.
4. Hamdard nuqta – V-28 (nan-guan-shu) – 2- va 3-dumg'aza umurtqalari o'simtalari oralig'idan 1,5 s. chekkada joylashgan. Sanchish chuqurligi 2,5–3 sm, szyu – 15–30 daqiqa.
5. Signal nuqta – J-3 (chjun-szi) – qorin o'rta chizig'ida kindikdan 4 s. pastda joylashgan. Sanchish chuqurligi 2–2,5 sm, szyu – 10–30 daqiqa.
6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – V-58 (fey-yan) – lateral to'piq markazidan yuqorida, lateral to'piqning orqa qirrasini va axill boylami o'rtasidagi V-60 (kun-lun) nuqta joylashgan chuqurchadan vertikal chiziq bo'ylab 7 s. yuqorida. Sanchish chuqurligi 1,5–2 sm, szyu – 5–10 daqiqa.
7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – V-63 (szin-men) – lateral to'piqdan past va oldiroqda kubsimon suyak qirrasidagi chuqurchada, tovonustining ostki tomonga o'tish chegarasida joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 3–10 daqiqa.

VIII. BUYRAK MERIDIANI (R)

Meridian funksional tizimiga buyraklar, tashqi va ichki jinsiy a'zolar va immun tizim kiradi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, in' tizimiga mansub. Energiya harakati – markazga intiluvchi. Energiyani siydik pufagidan olib perikard meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 17 dan 19 gacha. Buyrak meridiani siydik hosil bo'lishini, siydik chiqarilishini, immun tizim, jinsiy a'zolari nazorat qilib turadi. Meridianda 27 nuqta bor.


Meridian oyoq panjasining tovonosti qismi o'rtasida, II va III kaft suyaklari orasidan R-1 (yun-syuan) nuqtasi bilan boshlanadi. Oyoq panjasining ichki tomonidan halqa hosil qilib va tovon suyagi oldida bir necha tugunsimon harakat bilan ichki to'piq boldir mushagi ichki qismi orqali taqim ostiga yetadi. So'ngra sonning ichki yuzasidan o'tib, qorin oldi yuzasi va ko'krakda oldingi o'rta chizikdan 2 s. uzoqlikda ko'tarilib, o'mrov suyagining pastki qirrasida R-27 (shu-fu) nuqtasida to'xtaydi.

Buyrak meridianining ichki yo'li VG-1 nuqtadan umurtqa pog'onasiga boradi, shundan keyin pastga – bel sohasiga borgach, buyrakda yakunlanadi va siydik pufagiga ham o'tadi. Ichki yo'l shoxlanib yuqoriga jigar, diafragmadan va o'pkalar orqali o'tib, ikkiga bo'linib, til ildizida tugaydi. Ichki yo'lning boshqa shoxi old o'rta meridian bilan VG-1 (tan-chjun) nuqtasida bog'lanib, MS-1 (tyan-chi) nuqtada tugaydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: buyrak sohasidagi og'riklar, buyrak sanchig'i, og'riqli siyish, psixozlar, isteriya, quyonchiq, impotensiya, hayz sikli buzilishi, assit, oyoq shishlari, arterial gipertenziya, pilorospazm, jigar kasalliklari.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – R-7 (fu-lyu) – medial to'piq markazidan 2 s. yuqorida va orqaroqda boldir mushagining axill payiga o'tish joyi. Bu nuqta bemor o'tirgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 10–15 daqiqa.
2. Tinchlantiruvchi nuqta – R-1 (yun-syuan) – tovonosti markazida, 2- va 3-kaft suyaklari orasidagi chuqurcha. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki yotgan holatida, oyoq barmoqlarini bukib topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–5 daqiqa.



8-rasm. VIII Buyrak meridiani (R) va uning nuqtalari:

1 – yun-syuan; 2 – jan-gu; 3 – tay-si; 4 – da-chjun; 5 – shuy-syuan; 6 – chjao-xay; 7 – fu-lyu; 8 – szyao-sin; 9 – chju-bin; 10 – in-gu; 11 – xen-gu; 12 – da-xe; 13 – si-syue; 14 – si-man; 15 – chjun-chju; 16 – xuan-shu; 17 – shan-syuy; 18 – shi-guan; 19 – in-du; 20 – fu-tun-gu; 21 – yu-men; 22 – bu-lan; 23 – shen-fen; 24 – min-syuy; 25 – shen-san; 26 – yuy-chjuan; 27 – shu-fu.

3. Qo'llanma nuqta – R-3 (tay-si) – tovon suyagi yuqorisidagi chuqurcha, medial to'piq bilan axill payi orasidagi joy. Bu nuqta bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

4. Hamdard nuqta – V-23 (shen-shu) – 2- va 3-bel umurtqalarining qirrasimon o'tkir o'sig'idan 1,5 s. chekkada joylashgan. Bu nuqta bemor o'tirgan yoki qorin bilan – pastga qarab yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 15–20 daqiqa.

5. Signal nuqta – VB-25 (szin-men) – qorin yon tomonida, XII qovurg'aning erkin uchida joylashgan. Bu nuqta bemor yonga yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–7 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – R-4 (da-chjun) – axill payining tovon suyagiga yopishgan joyidan oldinda, R-3 (tay-si) nuqtasidan 0,5 s. pastda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – R-5 (shuy-syuan) – tovon suyagi bo'rtig'ining oldi va yuqorisidagi chuqurcha, R-3 (tay-si) nuqtasidan 1 s. pastroqda joylashgan. Bu nuqta bemor yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Siydik pufagi meridianining topografiyasi.
2. Siydik pufagi meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.
3. Siydik pufagi meridianining standart nuqtalari.
4. Buyrak meridianining topografiyasi.
5. Buyrak meridianining standart nuqtalari.
6. Buyrak meridianini qo'llashga ko'rsatmalar.

O'zlashtirish natijalarini tekshirish savollari. Vaziyatli masalalar.

1. Bemor siydik pufagi o'tkir shamollashi bilan kasallangan. Standart nuqtalarni ishlatgan holda akupunktur nuqtalar retseptini toping.
2. Bel-dumg'aza radikulitidagi og'riqni yo'qotish uchun standart nuqtalarni ishlatgan holda akupunktur nuqtalar retseptini toping.
3. Surunkali pielonefrit sababli gipertenzion sindrom. Ishlatiladigan nuqtalarni toping.

Uyga vazifa:

Perikard, uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlarining topografiyasi. Qo'llashga ko'rsatmalar.

6-MASHG'ULOT.

Mavzu: Perikard, uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlarining tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: Perikard, uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topishlashini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Siydik pufagi meridianining topografiyasi.
2. Siydik pufagi meridiani patologik holatlarining asosiy belgilari.
3. Buyrak meridianining topografiyasi.
4. Buyrak meridiani patologik holatlarining asosiy belgilari.
5. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan perikard vazifalarini o'rganish.
6. Uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlar to'g'risida tushuncha.

IX. PERIKARD MERIDIANI (MC)


Meridian juft simmetrik bo'lib, in tizimiga mansub. Energiya harakati – markazdan qochuvchi. Energiyani buyrak meridianidan olib uch isitgich meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 19 dan 21 gacha. Meridianda 9 ta ta'sir etish nuqtalari bor.

Meridianning ichki yo'li perikarddan boshlanib, ko'krak qafasi orqali o'tadi, tashqi yo'li esa IV qovurg'alararo bo'shliqda old o'rta chiziqdan 5 s. tashqarida joylashgan MC-1 (tyan-chi) nuqtasida boshlanadi. Keyin qo'ltiq ostiga ko'tarilib, undan qo'lga o'tadi va kaft tomondan 3-barmoqqa o'tib, barmoq uchida tirnog'iga 0,2 sm yetmay MC-9 (chjan-chun) nuqtasida yakunlanadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: Yurak sohasidagi og'riqlar, nevrogen taxikardiya, yurak kasalliklari, ko'krakdagi og'riqlar, yelkadagi yelkadan orqaga tomon tarqaladigan og'riq, ruhiy buzilishlar, o'pka xastaliklari, bezovtalanish holatlari, oshqozon kasalliklari, meridian bo'ylab bo'ladigan og'riqlar, qovurg'alararo nervlar nevrologiyasi, istmalash.

Standart nuqtalar:

1. Tonoslovchi nuqta – MC-9 (chjan-chun) – 3-barmoq oxirgi falangasida, tirnoq ildiziga 0,3 sm yetmasdan joylashgan. Nuqtani bemor o'tirgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,3 sm, szyu – 2–3 daqiqa.



9-rasm. IX Perikard meridiani (MC) va uning nuqtalari:

1 – tyan-chi; 2 – tyan-syuan; 3 – syuy-sze; 4 – si-men; 5 – szyan-shi; 6 – ney-guan; 7 – da-lin; 8 – lao-gun; 9 – chjan-chun.

2. Tinchlantiruvchi nuqta – MC-7 (da-lin) – bilak-kaftorti bo'g'imining proksimal burmasi o'rtasida, paylar oralig'i chuqurchasida joylashgan. Nuqtani bemor o'tirgan yoki yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–10.

3. Qo'llanma nuqta – MC-7 (da-lin) – (tinchlantiruvchiga qarang).

4. Hamdard nuqta – V-14 (szyu-in-shu) – 4- va 5-ko'krak umurtqalarining qirrasimon o'siqlari oralig'idan 1,5 s. chekkada. Nuqtani bemor o'tirgan yoki qorin bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 10–20 daqiqa.

5. Signal nuqta – MC-1 (tyan-chi) – 4-qovurg'alararo oraliqda old o'rta chiziqdan 5 s. tashqaridagi chuqurchada joylashgan. Nuqtani bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5–0,6 sm, igna yo'nalishi – deyarli gorizontal; szyu – 5–10 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – MC-6 (ney-guan) – kaftortidan 2 s. yuqorida kaftning uzun va qisqa mushaklari paylari orlig'ida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – MC-4 (si-men) – bilak-kaftorti bo'g'imining proksimal burmasidan 5 s. yuqorida kaftning uzun va qisqa mushaklari oralig'idagi chuqurchada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

X. TANANING UCH QISMI (UCH ISITKICH) MERIDIANI (TR)

Meridian funksional tizimi barcha ichki a'zolar integrativ funksiyalaridan tashkil topgan. Xitoy an'anaviy tibbiyot nazariyasi bo'yicha odam tanasi uch qismga bo'linadi: yuqori (shan-szyao) (szyao – yoritgich) – tananing diafragmagacha, o'rta (chjun-szyao) – diafragmadan kindikkacha va pastki (sya-szyao) – kindikdan pastki qismlari. Meridian juft va simmetrik bo'lib, yan tizimiga mansub. Energiya harakati – markazga intiluvchi. Energiyani perikard meridianidan olib o't qopi meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 21 dan 23 gacha. Meridianda 23 ta nuqta bor.

Meridian qo'lining 4-barmog'i tirnog'iga tirsak suyagi tomondan 0,3 sm yetmasdan TR-1 (guan-chun) nuqtasidan boshlanib, 4- va 5-kaft suyaklari oralig'idan o'tib, 4-kaft suyagi boshchasidan bilak-kaftorti bo'g'imi o'rtasiga burilib o'tadi, so'ngra umumiy barmoqlarni yozuvchi mushakning bilak suyagi tomoni bo'ylab, yelkaning tashqi yuzasi va deltasimon mushak tashqi qirrasidan, bo'yin yonidan o'tib so'rg'ichsimon o'siqqa yetadi, keyin quloq suprasini orqasidan aylanib o'tib, qoshning tashqi uchida TR-23 (si-chju-kun) nuqtasida tugallanadi.

Meridian o't qopi meridiani bilan VB-21 (szyan-szin) nuqtasida kesishib oldinga yo'naladi, o'mrov usti chuqurchasidan o'tib, ko'krakda VG-17 (tan-chjun) nuqtasida perikard meridiani bilan bog'lanadi va keyin diafragma orqali o'tib qorinning pastki qismiga yetadi, ya'ni tananing uch qismi (san-szyao)ni shunday bog'laydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: Termoregulyatsiya buzilishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, bo'yindagi og'riqlar, ensa va yelka kamaridagi og'riqlar, qo'l bo'g'imlari artritlari, karlik, quloqdagi shovqinlar, quloq, tomoq, burun va ko'zdagi og'riqlar, lunj va so'rg'ichsimon o'siq sohalaridagi yallig'lanish, tonzillit, depressiya, apatiya, qo'l 4-barmoq harakatining cheklanib qolishi, istmalash.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – TR-3 (chjun-chju) – qo'l 4-kaft suyagi tanasining distal boshchasiga o'tish joyida (4-kaft-barmoq bo'g'imidan orqaroqda) 4- va 5-kaft suyaklari oralig'idagi chuqurcha. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–7 daqiqa.

2. Tinchlantiruvchi nuqta – TR-10 (tyan-szin) – yelkaning orqa yuzasida tirsak bo'g'imidan 1 s. yuqorida paylar oralig'ida. Nuqtani qo'l tirsakdan bukilgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1–1,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.


3. Qo'llanma nuqta – TR-4 (yan-chi) – bilak-kaftorti bo'g'imi orqa yuzasida, 4-barmoqqa yo'nalishga nisbatan tirsak suyagi tomonda, barmoqlarni yozuvchi mushak va 5-barmoqni yozuvchi mushak paylari oraliqidagi chuqurchada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – o'tkazilmaydi.

4. Hamdard nuqta – V-22 (san-szyao-shu) – 1- va 2-bel umurtqalari oralig'idan 1,5 s. chekkada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 15–30 daqiqa.

5. Signal nuqta – J-5 (shi-men) – o'rta chiziq bo'ylab kindikdan 2 s. pastda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5–2,5 sm, szyu – 10–15 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta – TR-5 (vay-guan) – bilakning orqa tomonida kaftortidan 2 s. yuqorida tirsak va bilak suyaklari oralig'ida joylashgan. Sanchish chuqurligi – 2 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – TR-7 (xuey-szun) – bilakning orqa tomonida kaftortidan 3 s. yuqorida. Sanchish chuqurligi 1–1,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.




10-rasm. X Tananing uch qismi meridiani (TR) va uning nuqtalari:

1 – guan-chun; 2 – ye-men; 3 – chjun-chju; 4 – yan-chi; 5 – vay-guan; 6 – chji-gou; 7 – xuey-szun; 8 – san-yan-lo; 9 – si-du; 10 – tyan-szin; 11 – sin-len-yuyan; 12 – syao-le; 13 – nao-xuey; 14 – szyan-myao; 15 – tyan-lyao; 16 – tyan-yu; 17 – i-fen; 18 – si-may; 19 – lu-si; 20 – szyao-sun; 21 – er-men; 22 – xe-lyao; 23 – si-chju-kun.

XIII. ORQA O'RTA (BOSHQARUVCHI) MERIDIAN (T)* (VG)

Bu meridian funksiyasi – barcha meridianlar tizimini birlashtirish. Meridian toq, yan tizimiga mansub. Umumiy energiya almashish doirasiga kirmaydi, shuning uchun faollik soati yo'q. Energiya doimo pastdan yuqoriga harakatlanadi. U barcha yan meridianlarni birlashtiradi, shuning uchun hamma yan meridianlarining "dengizidir". Meridianda 28 nuqta bor. Meridian anus bilan dum suyagi o'rtasidan VG-1 (chan-szyan) nuqtasidan boshlanib, orqa o'rta chiziqdan, ya'ni umurtqalarning uchlaridan davom etib yuqorigi labning o'rtasida VG-28 (in-szyao) nuqtasida tugaydi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: organlardagi patologik jarayonlarga qarshi alohida meridianlar kurasha olmagan vaqtda orqa o'rta meridian mo'jizakor meridianga aylanib, organizmda yangi darajali aloqalar bilan ta'minlaydi.



11-rasm. XIII Orqa o'rta meridian (T) va uning nuqtalari: 1 – chan-szyan; 2 – lo-shu; 3 – lo-li-guan; 4 – min-men; 5 – syuan-shu; 6 – szi-chjun; 7 – chjun-shu; 8 – szin-so; 9 – chji-yan; 10 – lin-tay; 11 – shen-dao; 12 – shen-chju; 13 – tao-dao; 14 – da-chjuy; 15 – ya-men; 16 – fen-fu; 17 – nao-xu; 18 – syan-szyan; 19 – xou-din; 20 – bay-xuey; 21 – syan-din; 22 – syan-xuey; 23 – shan-sin; 24 – shen-tin; 25 – su-lyao; 26 – jen-chjun; 27 – duy-duan; 28 – in-szyao.

* – nomi "Ajoyib meridian" bo'yicha berilgan, fransuzcha – VG bilan belgilanadi.

Orqa o'rta meridian nuqtalari qo'llanadigan asosiy simptomlar va patologik holatlar:

VG-1 – VG-4 – asab tizimi kasalliklari, ichaklar, siydik chiqaruv va jinsiy tizimi kasalliklarida.


VG-5 – VG-8 – asab kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida.

VG-9 – VG-18 – asab tizimi, nafas yo'llari kasalliklari, ensadagi patologiyada, ruhiy kasalliklarda, bosh, ko'z, burun va quloq kasalliklarida.

VG-25 – VG-28 asab kasalliklarida, psixoz, burun va og'iz bo'shlig'i patologik holatlarda.

XIV. OLD O'RTA (URUG'LANISH) MERIDIAN (J)* (VC)

Barcha ichki a'zolar integrativ funksiyasini bajaradi. Orqa o'rta meridian kabi old o'rta meridian ham umumiy energiya aylanish doirasiga kirmaydi, shuning uchun faol vaqti yo'q. Energiya doimo pastdan yuqoriga harakatlanadi. U barcha in meridianlarini birlashtiradi va in meridianlarining "dengizi" hisoblanadi.



12-rasm. XIV Old o'rta meridian (J) va uning nuqtalari:

1 – xuey-in; 2 – syuy-gu; 3 – chjun-szi; 4 – guan-yuan; 5 – shi-men; 6 – si-xay; 7 – in-szyao; 8 – shen-syue; 9 – shuy-fen; 10 – sya-van; 11 – szyan-li; 12 – chjun-van; 13 – shan-van; 14 – szyuy-syue; 15 – szyu-vey; 16 – chjun-tin; 17 – tan-chjun; 18 – yuy-tan; 19 – szi-chun; 20 – xua-chay; 21 – syuan-szi; 22 – tyan-tu; 23 – lyan-syuan; 24 – chen-szyan.

** – nomi "Ajoyib meridian" bo'yicha berilgan, fransuzcha – VG bilan belgilanadi.*

Meridianda 24 nuqta bor. Organizmda surunkali patologik jarayon mavjudligida u ajoyib mo'jizakor meridianga aylanadi. Meridian butdan VG-1 (xuey-in) nuqtasidan boshlanadi va shu joyda ikkiga – ichki va tashqi yo'lga bo'linadi. Tashqi yo'l qorinni o'rta chizig'i bo'ylab ko'krakdan o'tib bo'yinning o'rtasidan davom etib dahanda VC-24 (chen-szyan) nuqtasida tugaydi. Shu joyda meridian ikkita simmetrik shoxchaga bo'linadi, bu shoxchalar lablarni aylanib o'tib, ko'z kosasigacha davom etadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar:

VC-1 – VC-18 – jinsiy, siydik chiqaruv va ichak kasalliklari belgilarida.

VC-10 – VC-15 – asab tizimi, oshqozon va ruhiy buzilishlarida.

VC-16 – VC-24 – nafas olish, qizilo'ngach, hiqildoq va og'iz bo'shlig'i kasalliklarida.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Perikard, uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlarining tavsifi.
2. Shu meridianlarning topografiyasi.
3. Shu meridianlarning asosiy simptomlari va patologik holatlari.
4. Meridianlarning standart nuqtalari.

O'zlashtirish natijalarini tekshirish savollari. Vaziyatli masalalar.

1. IRT paytida ignaning uchi sinib to'qimada qoldi. Sizning taktikangiz.
2. Bemorda panjasi va barmoqlarining falangalararo bo'g'imi bukilmay qoldi. Bemor panjasidagi va barmoqlaridagi og'riqqa shikoyat qiladi. Tashxis qo'ying. Davo uchun akupunktura nuqtalarini toping.
3. Yuqori, o'rta va pastki isitgichlar patologiyalarida qo'llaniladigan asosiy nuqtalarni ayting.
4. Quyidagi patologiyalarda orqa o'rta meridianning qaysi nuqtalaridan foydalansa bo'ladi:
 - A. Ichak patologiyasi.
 - B. Nafas a'zolari patologiyasi.
 - C. Bosh og'riqlari.
 - D. Burun og'riqlari.
 - E. Og'iz bo'shlig'i patologiyasi.
5. Quyidagi patologiyalarda XIII- va XIV-meridianlarning qaysi nuqtalarini ishlatish mumkin:
 - A. Qizilo'ngach patologiyasi.
 - B. Hiqildoq patologiyasi.
 - C. Me'da-ichak patologiyasi.
 - D. Psixik buzilishlar.

Uyga vazifa:

O't pufagi va jigar meridianlarining topografiyasi. Qo'llashga ko'rsatmalar.

7-MASHG'ULOT.

Mavzu: O't pufagi va jigar meridianlarining tavsifi, qo'llashga ko'rsatmalari.

Mashg'ulot maqsadi: O't pufagi va jigar meridianlari topografiyasini hamda asosiy nuqtalari topishlashini o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Perikard, uch isitgich, orqa o'rta va old o'rta meridianlarining topografiyasi.
2. Ularda patologik holatning asosiy belgilari.

3. Asosiy a'zolar to'g'risida tushuncha-ma'lumotlar nuqtai nazaridan o't pufagi va jigar vazifalarini o'rganish.

XI. O'T PUFAGI MERIDIANI (VB)

Meridian funksional tizimiga xususan o't pufagi va qisman jigar kiradi. Meridian juft va simmetirik bo'lib, yan tizimiga mansub. Energiya harakati – markazdan qochuvchi. Energiyani uch isitkich meridianidan olib jigar meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 23 dan 01 gacha. Meridianda 44 ta ta'sir nuqtasi bor.

Meridian ko'zning tashqi burchagidan 0,6 sm masofadagi VB-1 (tun-szi-lyao) nuqtasidan boshlanib peshona burchagiga ko'tariladi, keyin quloq suprasini orqasidan aylanib yumshoq qismigacha tushadi, shundan so'ng yana yuqoriga – chakka sohasiga qaytadi. U yerdan ko'z kosasi o'rta chizig'i bo'ylab ensa suyagining pastki qirrasiga yo'naladi va keyin bo'yining yon yuzasi va yelka orqali o'tib, oldingi aksillyar chiziqqacha boradi. So'ngra tananing yon tomoni bo'ylab ko'krak, qorin, yonbosh suyagi qirrasini va son suyagining boshiga, undan keyin son va tizza yonlaridan o'tib, kichik boldir suyagi tomonidan oyoq panjasi ustki tomoniga o'tadi. Meridian oyoq panjasining IV va V suyaklari oralig'idan o'tib, IV barmoqning tirnog'i ildiziga tashqi tomondan 0,3 sm yetmasdan VV-44 nuqtasida yakunlanadi.

Meridian VV-21 (szyan-szin) nuqtasida tananing uch qismi meridiani bilan kesishadi. Birinchi shoxlanishi so'rg'ichsimon o'siq sathidan boshlanib, quloq ichiga kiradi va so'ngra ko'zining tashqi burchagiga boradi. Bu yerdan pastga – E-5 va E-6 nuqtalariga tushib, bo'yin orqali o'tib, o'mrovusti chuqurchasidagi asosiy mushak bilan bog'lanadi. Shu joyda asosiy chiziqdan shoxlanib pastga – ko'krak qafasi hamda diafragma orqali o'tib, jigar meridiani bilan bog'lanadi va o't pufagiga kiradi. So'ngra qorin bo'shlig'i orqali patga tushib, E-30 nuqtada tashqariga chiqadi va qov suyagi qirrasini oshib o'tib, tos-son bo'g'imiga kiradi.

Ikkinchi shoxlanishi o'mrovusti chuqurchasidan pastga – yelka bo'g'imining oldinigi yuzasi, qo'ltiq sohasi, qovurg'aosti sohasi, bel, dumg'aza va VG-1 (chan-szyan) nuqtadan o'tib, yuqorida aytilgan shoxlanishi bilan tos-son bo'g'imida bog'lanadi. Uchinchi shoxlanishi oyoq panjasining ustki qismida VB-41 nuqtadan boshlanib, oyoqning 1-barmog'i oxiriga borib, F-1 (da-dun) nuqtada jigar meridiani bilan bog'lanib yakunlanadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: O't qopi funksiyasining buzilishi (ko'ngil aynashi, diskineziya, qayt qilish, og'izda achchiq ta'm bo'lishi, o't qopi sohasi og'rig'i, xoletsistit), o'pka kasalliklari, yo'tal, hansirash, astma, boshning ensa va chakka sohalari og'rig'i, meridian bo'ylab bo'ladigan og'riqlar, ko'z kasalliklari, burun qonashi, quloq kasalliklari, oshqozon-ichak buzilishlari, kichik tos a'zolari kasalliklari, hayz siklining buzilishi, asabiy-ruhiy buzilishlar, quyunchiq.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – VB-43 (sya-si) – IV va V oyoq barmoqlar orasidagi burmada (IV va V oyoq panja suyaklari boshchalari oralig'ida) joylashgan. Nuqtani bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 0,5–1,0 sm, szyu – 3-5 daqiqa.

2. Tinchlantiruvchi nuqta – VB-38 (yan-fu) – lateral to'piq markazidan 4 s. yuqorida va 1 sm oldinda joylashgan. Nuqtani bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1,5–2,0 sm, szyu – 5-10 daqiqa.


3. Qo'llanma nuqta – VB-40 (syu-syuy) – lateral to'piq pastki qirrasidan ozroq oldinda joylashgan. Nuqtani bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, igna uchi medial to'pia orqa tomoniga qaratilgan yo'nalishda kiritiladi; szyu – 5–15 daqiqa.

4. Hamdard nuqta – V-19 (dan-shu) – X va XI ko'krak umurtqalari qirrasimon o'siqlari oralig'idan 1,5 s. chekkada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1,5 sm, szyu – 15–20 daqiqa.

5. Signal nuqta – VB-24 (ji-yue) - VIII qovurg'aning yuqori qirrasida va o'rta o'mrov chizig'i kesishgan nuqta. Nuqtani bemor orqa bilan yotgan holatida topiladi. Sanchish burchak ostida, chuqurligi 1 sm; szyu – 5–10 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – VB-37 (guan-min) – kichik boldir suyagining old qirrasida, lateral to'piq markazidan 5 s. yuqorida, oyoq barmoqlarini yozuvchi uzun va kichik boldir qisqa mushaklari oralig'ida joylashgan. Sanchish chuqurligi 2 sm, szyu – 3–7 daqiqa.

7. Og'riqni qoldirish nuqtasi – VB-36 (vay-syu) – kichik boldir suyagining old qirrasida, lateral to'piqdan 7 s. yuqorida, oyoq barmoqlarini yozuvchi va uzun kichik boldir mushaklari oralig'idagi chuqurlikda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.



13-rasm. XI o't pufagi meridiani (VB) va uning nuqtalari:

1 – tun-szi-lyao; 2 – tin-xuey; 3 – shan-guan; 4 – xan-yan; 5 – syuan-lu; 6 – syuan-li; 7 – syuy-bin; 8 – shuay-gu; 9 – tyan-chun; 10 – fu-bay; 11 – tou-syao-in; 12 – van-gu; 13 – ben-shen; 14 – yan-bay; 15 – tou-lin-si; 16 – mu-chuan; 17 – chjen-in; 18 – chen-lin; 19 – nao-kun; 20 – fen-chi; 21 – szyan-szin; 22 – yuan-e; 23 – chje-szin; 24 – ji-yue; 25 – szin-men; 26 – day-may; 27 – s-shu; 28 – vey-dao; 29 – szyuy-lyao; 30 – xuan-tyao; 31 – fen-shi; 32 – chjun-du; 33 – szu-yan-guan; 34 – yan-lin-syuan; 35 – yan-szyao; 36 – vay-syu; 37 – guan-

min; 38 – yan-fu; 39 – syuan-chjun; 40 – syu-syuy; 41 – suz-lin-si; 42 – di-u-xuey; 43 – sya-si; 44 – suz-syao-in.

XII. JIGAR MERIDIANI (F)

Meridian funksional tizimiga jigar va uning funksiyasi bo'lmish dezintoksikatsiya, qon ivishidagi ishtiroki, qon deposi va boshqa funksiyalar kiradi. Meridian juft, simmetrik bo'lib, in tizimiga kiradi. Energiya harakati – markazga intiluvchi. Energiyani o't pufagi meridianidan olib o'pka meridianiga uzatadi. Eng faol davri – soat 1 dan 3 gacha. Meridianda ta'sir qilish mumkin bo'lgan 14 nuqta bor.

Meridian oyoqning 1-barmog'i tirnoq ildiziga tashqi tomondan 0,5 sm yetmasdan F-1 (da-dun) nuqtasidan boshlanadi. Oyoq panjasining ustki tomonidan oshiq-boldir bo'g'imiga borib, katta boldir suyagi orqa tomonidan yuqoriga ko'tariladi. Tizza bo'g'imi sohasida son ichki tomoniga qayrilib, qorin sohasiga XI qovurg'aning erkin uchigacha ko'tariladi. U yerdan qovurg'a yoyi sohasi bo'ylab ko'tarilib, 6-qovurg'alararo oraliqda o'rtao'mrov chizig'idagi F-14 nuqtasida yakunlanadi. Tashqi yo'l yon shoxlarga ega emas. Meridianning ichki yo'li qorin pastki qismidan me'dagachaga va jigarga boradi. So'ngra o't pufagi bilan bog'lanib yuqoriga – diafragmani kesib o'tib ko'krak qafasi, hiqildoq, xalqum, tomoq bo'ylab yurib ko'z sohasi bilan bog'lanadi. Shu joydan tashqariga chiqib peshona, tepa sohasida VG-20 (bay-xuey) nuqtasida orqa o'rta meridian bilan bog'lanadi. Ko'z sohasida shoxlanish lunjning ichki yuzasi bo'ylab yurib, lablarni aylanib o'tadi. Yana bir shoxlanish jigardan boshlanib, diafragma va o'pkadan o'tib, VG-12 (chjun-van) nuqtasida tugallanadi va shu nuqtada o'pka meridiani bilan bog'lanadi.

Qo'llashga ko'rsatmalar: qorinning pastki qismidagi og'riqlar, erkaklar va ayollar jinsiy a'zolar kasalliklari, jinsiy a'zolar qichishishi, impotensiya, zakirdagi og'riq, hayz sikli buzilishi, jinsiy yo'llar oqmalari, bachadondan qon ketishi, bachadon va qin tushishi, siydik ajralishining buzilishlari, buyrak og'riqlari, o'ng qovurg'aosti va jigar sohalari og'riqlari, sarg'ayish, gepatit, disfagiya, anoreksiya, oshqozon-ichak buzilishlari, jigar faoliyati va hazm buzilishlari, ishtaha yo'qligi, ko'ngil aynashi, qayt qilish, ich ketishi, qon aralash ich ketishi, qabziyat, qovurg'alararo nevralgiya, bel og'rig'i, son va boldirning ichki tomonlari, boldir, tizza bo'g'imi, tovon sohalari og'riqlari, bosh og'riqlari, ko'z og'rig'i, tasirlanuvchanlik, maniakal holatlar, churra og'rig'i, dermatozlar.

Standart nuqtalar:

1. Tonuslovchi nuqta – F-8 (syuy-syuan) – tizza bo'g'imi ichki yuzasida, taqim osti burmasi oxirida. Sanchish chuqurligi 0,5 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

2. Tinchlantiruvchi nuqta – F-2 (sin-szyan) – oyoqning I va II panja-barmoq bo'g'implari oralig'idan orqaroqdagi chuqurchada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.


3. Qo'llanma nuqta – F-3 (tay-chun) – oyoqning I va II panja suyaklari oraliqining eng tor qismidagi chuqurchada, panja-barmoq bo'g'imidan 0,5 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

4. Hamdard nuqta – V-18 (gan-shu) – IX va X ko'krak umurtqalarining qirrasimon o'siqlari oralig'idan 1,5 s. chekkada joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 5–10 daqiqa.

5. Signal nuqta – F-14 (si-men) – o'mrov o'rta chizig'ida, VI qovurg'alararo oraliqda joylashgan. Sanchish chuqurligi 1 sm, szyu – 3–7 daqiqa.

6. Mo'tadillovchi nuqta (lo-punkt) – F-5 (li-gou) – katta boldir suyagining orqa qirrasida medial to'piq markazidan 5 s. yuqorida joylashgan. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 2–5 daqiqa.

7. Og'riq qoldiruvchi nuqta – F-6 (chjun-du) – boldirning old-ichki yuzasida medial to'piqdan 7 s. yuqorida. Sanchish chuqurligi 0,5–1 sm, szyu – 2–5 daqiqa.



14-rasm. XII jigar meridiani (F) va uning nuqtalari:

1 – da-dun; 2 – sin-szyan; 3 – tay-chun; 4 – chjun-fen; 5 – li-gou; 6 – chjun-du; 7 – si-guan; 8 – syuy-syuan; 9 – in-bao; 10 – szu-u-li; 11 – in-lyan; 12 – szy-may; 13 – chjan-men; 14 – si-men.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. O't pufagi va jigar meridianlarining tavsifi.
2. Shu meridianlarning topografiyasi.
3. Shu meridianlarning asosiy simptomlari va patologik holatlari.
4. Meridianlarning standart nuqtalari.

O'zlashtirish natijalarini tekshirish savollari. Vaziyatli masalalar.

1. Teri qichishishini olish uchun kerakli akupunktura nuqtalari retseptini tanlang.

Uyga vazifa:

Sharq tabobati usullarini qo'llashga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, uchraydigan asoratlarni va ularning oldini olish.

8-MASHG'ULOT.

Mavzu: Sharq tabobati usullarini qo'llashga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Igna bilan davolash vaqtida uchraydigan asoratlarni va ularning oldini olish.

Mashg'ulot maqsadi: IRT qo'llashda ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni o'rganish.

Avval o'tilgan va bilish lozim bo'lgan savollar:

1. Ilgari o'rganilgan (1 dan 14 gacha) meridianlarning topografiyasi.
2. Ularda patologik holatning asosiy belgilari.

IRT qo'llashda ko'rsatmalar bilan birga qarshi ko'rsatmalar ham mavjud. Ba'zi bir kasalliklarda, masalan, uchlik nerv nevrologiyasi, migren, yuz nervi nevriti, vazomotor rinit, radikulit kabilarda akupunktura, kompleks terapiya tarkibida nisbatan samarali bo'lsa-da albatta, asosiy davo vositasi, hatto yagona davolash usuli sifatida qo'llanadi. Boshqa holatlarda igna sanchish davolashda qo'shimcha usul hisoblanadi.

Quyida akupunktura qo'llanishiga asosiy va nisbiy ko'rsatmalar, shuningdek qarshi ko'rsatmalar keltiriladi.

ASOSIY KO'RSATMALAR

Asab tizimi kasalliklari:

- periferik asab tizimi kasalliklari (radikulitlar, pleksitlar, nevrit va nevrologiyalar, polinevit polineuropatiyalar);
- umurtqa osteoxondrozining nevrologik ko'rinishlari (reflektor mushak-tonik va neyrodistrofik sindromlar), ildizchalar kompression sindromlari, visseral va qon tomirlari vegetativ ko'rinishlari;
- nevroz va nevrotik buzilishlar (nevrasteniya, isteriya, tungi enurez, psixogen seksual buzilishlar, funksional giperkinezlar va b.);
- vegetativ asab tizimi kasalliklari (vegetativ-qon tomirlari distoniyasi, migren, yuz simpatolgiyalari, periferik angiodistoniyalar va b.);
- bosh va orqa miya qon tomirlari kasalliklari (miya qon aylanishi buzilishining dastlabki ko'rinishlari, serebral va orqa miya qon aylanishi buzilishlarining oqibatlari);
- turli paralichlar;
- og'riq sindromlari va b.

Ichki a'zolar kasalliklari:

- yurak-qon tomirlari tizimi kasalliklari (gipertoniya kasalligining I–II bosqichlari, ateroskleroz, stenokardiya va turli genezli kardialgiyalar, yurak maromining buzilishlari);
- nafas tizimi kasalliklari (surunkali bronxit, bronxial astma);
- ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (o't yo'llari va me'da-ichak trakti diskineziyalari, spastik va atonik kolitlar, oshqozon va 12 b.i. yara kasalliklari, surunkali gastroenterokolit va xolestistit);
- siydik-tanosil tizim kasalliklari (nefrit va pielonefrit, sistit, buyrak sanchig'i, impotensiya, frigidlik, menstrual sikl buzilishlari va og'riqlari, tuxumdonlar yallig'lanishi va b.).

Boshqa kasalliklar:

- allergik kasalliklar (vazomotor va allergik rinitlar, eshakem, Kvinke shishi, allergik kon'yunktivit, dori kasalligi va b. Allergozlar);

- jarrohlik patologiyalari (operatsiyadan keyingi og'riqlar, ichak va siydik pufagi parezi, operatsion muolajalar anesteziyasi);
- ginekologik kasalliklar va akusherlik patologiyalari (klimakterik sindrom, surunkali adneksit va endometrit, homiladorlikni ko'tara olmaslik, homiladorlikning I va II yarmi toksikozlari, tug'uruqda stimullash va og'riqsizlantirish, gipogalaktiya);
- teri kasalliklari (neyrodermitlar, ekzema, allergik dermatit va seboreya, teri qichishishi, sochlarning erta to'kilishi, o'choqli kallik va b.);
- bolalar kasalliklari.

NISBIY KO'RSATMALAR

- polimielitning qoldiq asoratlari;
- miyada qon aylanishning o'tkinchi buzilishlari;
- diensefal sindrom (endokrin-moddalar almashinuvi va b. O'zgarishlar bilan);
- turli genezli giperkinezlar – tirishishlar;
- hurujlari soni kam bo'ladigan epilepsiya;
- bolalar serebral paralichlari va perinatal ensefalopatiyalar;
- tarqoq skleroz (boshlang'ich bosqichi);
- kuchayib boruvchi mushak distrofiyasi (boshlang'ich bosqichi);
- narkomaniyalar (surunkali alkogolizm, chekish);
- endokrin patologiyaning ba'zi shakllari (tireotoksikoz, qandli diabet, semizlik va b.).

QARSHI KO'RSATMALAR

- har qanday o'smalar;
- sababi noaniq bo'lgan isitma;
- o'tkir yuqumli kasalliklar va surunkali infeksiyaning avj olishi (silning faol shakli va h.k.);
- qon kasalliklari;
- yurak-o'pka, buyrak, jigar yetishmovchiliklari dekompensatsiyasi;
- keskin somatik astenizatsiya va kaxeksiya;
- homiladorlik;
- tashxis noaniq bo'lganda;
- emizikli yoshgacha (2 yoshgacha bolalarda akupressura yoki IRTning boshqa usullari qo'llanadi) va qarilik;
- mastlik holati.

IGNA BILAN DAVOLASH VAQTIDA UCHRAYDIGAN ASORARLAR

Agarda igna bilan davolash uslublari qoidasiga rioya qilinmasa, quyidagi asoratlar paydo bo'lishi mumkin:

• Hushdan ketish.

Bu holat ko'pincha bemorni haddan tashqari asablanishida, astenik tuzilishida, davo oldidan qo'rqishida, charchaganida, tanasi noto'g'ri holatda bo'lganida yoki igna bilan juda qattiq manipulyasiya o'tkazilganda uchraydi.

Hushdan ketishning oldini olish:

- eng avval bemorni kelajakdagi igna bilan davolash va igna teriga sanchilganda paydo bo'ladigan sezgilar bilan tanishtirish kerak;
- bemor muolajaga ovqatdan keyin 1,5-2 soat o'tgach taklif etiladi;
- birinchi muolajani bemorning yotgan holatida o'tkaziladi;
- birinchi ikkita seansda bemorning bir o'zini qoldirish tavsiya etilmaydi.

Agarda hushdan ketishning birinchi belgilari paydo bo'lsa (bosh aylanishi, yuz oqarishi, quloqdagi g'uvillash, ko'ngil aynishi), o'sha zahoti ignalarni chiqarib olib, bemorning boshini pastga egib yotqizish lozim.

• **Igna to'qimalarda tiqilib qolishi.**

Bu asorat quyidagi sabablardan kelib chiqishi mumkin:

- haddan tashqari asablanishdan;
- AN atrofidagi mushaklar spazmidan;
- bemor, igna kiritilgandan so'ng, tana holatini o'zgartirgan bo'lsa;
- igna ko'pincha bir tomonlama aylantirilib kiritilgan bo'lsa.

Igna tiqilib qolsa, uni aylantirma va ilgarilama harakatlari og'irlashadi yoki to'xtab qoladi.

• **Igna sinishi.**

Igna sinishi juda ham kam uchraydi va ko'pincha igna qo'lchasi uning o'zagiga o'tadigan joyida sodir bo'lishi. Bu asorat ignaning sifarsizligidan, igna bilan noto'g'ri harakat qilishdan va shunga o'xshash sabablardan kelib chiqadi.

Igna sinib qolgan vaqtdagi choralar:

- ignaning singan uchi teri ustidan chiqib tursa, igna barmoqlar yoki juftak yordamida to'qimadan chiqariladi;
- agarda ignaning singan uchi teri bilan teng ravishda bo'lsa – barmoq uchi bilan kiritilgan igna yonidagi to'qimaga igna uchi ko'ringuncha bosiladi va u ko'rinishi bilan ignani juftak yordamida to'qimadan chiqariladi;
- agarda singan igna to'qimaga chuqurroq kirib ketgan bo'lsa, uni jarrohlik yo'li bilan chiqariladi.

Bu asoratning oldini olish uchuch:

- sifatsiz ignalar ishlatilishi man etiladi;
- igna qo'lchasigacha kiritilmaydi – teri ystida igna o'zagidan yana 1,5-2 sm qolishi kerak.

• **Igna qiyshayishi.**

Buning sababi – igna bilan noto'g'ri harakat qilishda, masalan igna suyakka tushganda yoki igna kiritilgandan so'ng bemor tana holatini o'zgartirishida.

Qiyshaygan ignalar ishlatilishi man etiladi.

• **Gematoma**

Bu asorat yirik qon tomir jarohatlanishi oqibatida kelib chiqadi. Mayda va o'rtacha gematomalar mustaqil ravishda yo'qoladi, yiriklarini esa engil uqalanadi yoki spirt bilan kompress qo'yiladi.

• **Igna sanchilgan o'rni og'rishi.**

Bu holat bir necha soat davom etishi va taranglanish sezgisi bilan kuzatilishi mumkin. Asoratning paydo bo'lishi igna bilan noto'g'ri, qo'pol harakat qilish, uchi o'tmas ignalarni ishlatish kabi sabablar bilan bog'langan.

Agarda igna o'rnida o'rta darajali og'riq sezilsa, bu joy engil uqalanadi, agarda og'riq kuchliroq sezilsa – igna o'rni kuydiriladi.

**Akupunkturada katta ahamiyatga ega bo'lgan nuqtalar funktsiyasi
asosidagi tasnif**

Nuqtalar funktsiyasi		Qo'zg'atuvchi	Tinchlantiruvchi	Yordamchi	Oddiy Lo-nuqta	Ogohlantiruvchi	Tarafdor (Shu)	Tirqish (Si)	Daraxt (shamol)	Olov (issiqlik)	Er (namlik)	Metall (quruqlik)	Suv (sovuqlik)	Distal nuqtalar
M E R I D I A N L A R	P	9	5	9	7	1	V 13	6	11	10	9	8	5	11
	GI	11	2	4	6	E 25	V 25	7	3 4	8	11	1	2	1
	E	41	45	42	40	J 12	V 21	34	42 43	41	36	45	44	45
	RP	2	5	3	4	F 13	V 20	8	1	2	3	5	9	1
	C	9	7	7	5	J 14	V 15	6	9	8	7	4	3	9
	IG	3	8	4	7	J 4	V 27	6	3 4	5	8	1	2	1
	V	67	65	64	58	J 3	V 28	63	65 64	60	40	67	60	67
	R	7	2	3	4	VB 25	V 23	5	1	2	3	7	10	1
	MC	9	7	7	6	2	V 14	4	9	8	7	5	3	9
	TR	3	10	4	5	J 5	V 22	7	3 4	6	10	1	2	1
	VB	43	38	40	37	24	V 19	36	41 40	38	34	44	43	44
	F	8	2	3	5	14	V 18	6	1	2	3	4	8	1

ADABIYOTLAR

Asosiy:

1. Ким Э.Г. и соавт. «Основы акупунктуры и мануальной терапии». Санкт-Петербург, 1996 г., 270 стр.
2. Ким Э.Г. и соавт. «Методические разработки к практическим занятиям по нетрадиционным методам лечения». Ташкент, 1992 г., 56 стр.
3. Li B.N. "Xalq tibbiyoti". Toshkent, 2008 y., 179 bet.
4. Ли Б.Н. «Народная медицина». Ташкент, 2008 г., 179 стр.

Qo'shimcha:

1. Табеева Д.М. «Руководство по иглорефлексотерапии». Москва, 2004 г., 560 стр.
2. Лувсан Г. и соавт. «Основы иглорефлексотерапии». Москва, 2003 г., 615 стр.